

## MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG‘ARISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

**Raximov Faxriddin Shavkatovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0008-1234-5678

E-mail: [faxriddinraximov.uz@gmail.com](mailto:faxriddinraximov.uz@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqada tabiiy kapitalni jamg‘arishga ta’sir etuvchi iqtisodiy, ekologik, institutsional va ijtimoiy omillar nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda tabiiy kapitalning mintaqaviy rivojlanishdagi strategik ahamiyati, unga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi determinantlar tizimli ravishda tahlil qilingan. Tabiiy kapital jamg‘arilishiga resurslardan foydalanish darajasi, ekologik barqarorlik, investitsion faollik, innovatsion texnologiyalar va boshqaruv sifati ta’siri baholangan. Mintaqada omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslab berilib, tabiiy kapitalni ko‘paytirishning ustuvor yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** tabiiy kapital, mintaqaviy iqtisodiyot, resurs salohiyati, ekologik omillar, institutsional muhit, innovatsion rivojlanish, investitsiya, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, jamg‘arish omillari.

### Аннотация

В данной статье исследованы основные экономические, экологические, институциональные и социальные факторы, влияющие на накопление природного капитала в регионе. Рассмотрены стратегическая роль природного капитала в региональном развитии, а также системно проанализированы внутренние и внешние детерминанты его накопления. Оценено влияние уровня использования ресурсов, экологической устойчивости, инвестиционной активности, инновационных технологий и качества управления на процесс накопления природного капитала. На региональном примере обоснованы ключевые направления увеличения природного капитала.

**Ключевые слова:** природный капитал, региональная экономика, ресурсный потенциал, экологические факторы, институциональная среда, инновационное развитие, инвестиции, зелёная экономика, устойчивое развитие, факторы накопления.

### Abstract

This article examines the main economic, environmental, institutional, and social factors influencing natural capital accumulation in a region. The strategic importance of natural capital in regional development and the internal and external determinants affecting its accumulation are systematically analyzed. The study evaluates the impact of resource use intensity, environmental sustainability, investment activity, innovative technologies, and governance quality on natural capital accumulation. Based on regional analysis, priority directions for increasing natural capital are proposed.

**Keywords:** natural capital, regional economy, resource potential, environmental factors, institutional environment, innovation, investment, green economy, sustainable development, accumulation factors.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida mintaqa iqtisodiyotining barqarorligi bevosita tabiiy kapital holati va uning jamg'arilish darajasiga bog'liqdir. Tabiiy kapital - bu yer, suv, mineral resurslar, bio xilma-xillik va ekotizim xizmatlari yig'indisi bo'lib, u mintaqaning uzoq muddatli iqtisodiy salohiyatini belgilaydi. Mintaqaviy iqtisodiyotda tabiiy kapital nafaqat ishlab chiqarish bazasi, balki investitsion jozibadorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikning ham tayanch omili hisoblanadi.

Ko'plab mintaqalarda sanoatlashtirish, urbanizatsiya, suv tanqisligi, yer degradatsiyasi va ekologik bosim tabiiy kapitalning qisqarishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, qurg'oqchil va agroixtisoslashgan hududlarda tabiiy kapital jamg'arilishi ko'proq resurslardan foydalanish sifati, boshqaruv samaradorligi va ekologik siyosatga bog'liq. SHu sababli, tabiiy kapitalning o'sishiga yoki kamayishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash mintaqaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

Mintaqada tabiiy kapitalni jamg'arish ko'plab determinantlar ta'sirida shakllanadi. Ular orasida tabiiy-resurs bazasi, investitsion siyosat, ekologik boshqaruv, innovatsion texnologiyalar, davlat institutlari, demografik bosim va infratuzilma darajasi alohida o'rin tutadi. Mazkur omillarni majmual baholash orqali hududning tabiiy kapital salohiyatini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish mumkin.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Tabiiy kapitalni jamg'arishga qaratilgan tadqiqotlar so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishning ekstensiv modelidan barqaror va resurs tejamkor rivojlanish modeliga o'tish zarurati kuchayishi bilan yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar, avvalo, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologik barqarorlik, institutsional boshqaruv sifati va innovatsion texnologiyalarning o'zaro bog'liqligini kompleks baholashga qaratilgan. Mintaqaviy darajada yer va suv resurslari holati, demografik bosim, sanoatlashuv sur'ati, investitsiya siyosati hamda ekologik cheklovlar tabiiy kapital jamg'arilishiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda tabiiy kapitalning faqat resurs bazasi sifatida emas, balki iqtisodiy xavfsizlik, ijtimoiy farovonlik va kelgusi avlodlar uchun strategik aktiv sifatida talqin qilinishi ushbu sohadagi nazariy yondashuvlarni kengaytirmoqda. Ayniqsa, raqamli monitoring, iqtisodiy-ekologik modellashtirish va integral baholash usullarining qo'llanilishi tabiiy kapitalga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilish imkonini berib, mintaqaviy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada, mazkur tadqiqotlar mintaqalarda tabiiy kapitalni saqlash, ko'paytirish va samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

L.N.Davidenko ta'kidlaganidek, tabiiy resurslar ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish bosqichida iste'mol tovarlari sifatida foydalaniladigan yoki foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy muhitning tarkibiy qismidir.<sup>1</sup> Mazkur yondashuv tabiiy resurslarni oddiy xomashyo manbai sifatida emas, balki ishlab chiqarish jarayonining to'laqonli omili darajasida talqin etib, ularning tabiiy kapital sifatidagi iqtisodiy mazmunini ochib beradi. Bunda tabiiy resurslarning mavjudligi, sifati va hududiy joylashuvi tabiiy qonuniyatlar asosida shakllanadi hamda ishlab chiqarish faoliyatining tarkibiy asosiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, bevosita iste'mol qilinadigan yer, suv, o'rmon yoki mineral resurslar nafaqat joriy ehtiyojlarni qondiruvchi boylik, balki ular orqali boshqa iqtisodiy ne'matlar va xizmatlar yaratilishini ta'minlovchi bilvosita iste'mol manbai hamdir. Demak, tabiiy resurslarni tabiiy kapital sifatida anglash ularni uzoq muddatli iqtisodiy qiymat yaratuvchi, ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi va kelajakdagi rivojlanish uchun strategik asos bo'lib xizmat qiluvchi omil sifatida baholashni anglatadi. A.V.Neverov, O.A.Varapaeva va N.A.Masilevichlarning fikricha, tabiiy resurs salohiyati resurslarning mavjudligi, ularning miqdori va sifati foydalanish qiymati bilan belgilanadi<sup>2</sup>. Mualliflar tabiiy kapitalga aylanadigan tabiiy resurslar salohiyatiga e'tibor berishgan.

V.L.Inozemtsev postindustrial jamiyat nazariyasi doirasida tabiiy kapitaldan foydalanish samaradorligining ortishini iqtisodiyotning sanoat modelidan postindustrial bosqichiga o'tishi bilan izohlarkan, bu o'zgarish resurs talab qiluvchi tarmoqlar ishlab chiqarishini barqaror darajada cheklash, shu bilan birga yuqori texnologik va bilimga asoslangan sohalarni rivojlantirishni nazrda tutadi. Natijada iqtisodiy faoliyatning markazi moddiy resurslarga tayanadigan ishlab chiqarishdan intellektual mahsulot va xizmatlar yaratishga ko'chadi. Bu jarayon ilg'or ilmiy-texnik yutuqlar hamda yuqori malakali mehnat resurslari hisobiga tabiiy resurslar iste'molini qisqartirish va ularni muayyan davriylikda ekotizimga qayta tiklash imkoniyatlarini kengaytiradi.<sup>3</sup> T.Gilfasonning ta'kidlashicha, tabiiy resurslarga boy mamlakatlarda ulardan foydalanishning samarasizligi ishlab chiqaruvchilarning ijaraga yo'naltirilgan xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga mulk huquqlarining noaniq ta'rifi, davlat boshqaruvida byurokratiyaning kuchayishi, ijtimoiy tengsizlikning o'sishi va asosiy vositalarga investitsiyalar samaradorligining pasayishi kuzatiladi<sup>4</sup>.

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiiy kapital jamg'arilishiga ta'sir etuvchi omillar murakkab va o'zaro bog'liq tizim sifatida namoyon bo'lib, ularni umumlashtirilgan holda resurs, institutsional hamda innovatsion-ekologik yo'nalishlarda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, resurs omillari tabiiy kapitalning birlamchi moddiy asosini tashkil etadi. Bunda yer, suv, o'rmon, mineral-xomashyo resurslari, biologik xilma-xillik va iqlim sharoiti kabi tabiiy komponentlarning mavjudligi, sifati va ulardan foydalanish darajasi hal qiluvchi

<sup>1</sup> Давыденко Л.Н. Институционализация рынка природных ресурсов. - Минск: ИВЦ Минфина, 2014. - С. 22-23.

<sup>2</sup> Неверов А.В., Варпаева О.А., Масилевич Н.А. Экономическая оценка природно-ресурсного потенциала региона: теория и практика применения// Ж. Труды БГТУ. - Минск: №7, 2013. - С. 101-105.

<sup>3</sup> Иноземцев В.Л. За пределами экономического общества. - М.: Академия-Наука, 1998. - С 16-17.

<sup>4</sup> Гилфасон Т. Мировая экономика природных ресурсов и экономический рост// Экономический журнал ВШЭ. - М.: № 2, 2008. - С. 201-206.

ahamiyatga ega. Mintaqaning tabiiy resurs salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, tabiiy kapitalni jamg'arish imkoniyati ham shunchalik keng bo'ladi, biroq resurslardan samarasiz yoki me'yoridan ortiq foydalanish ularning degradatsiyasiga olib keladi. Shu bois resurs omillari nafaqat mavjud salohiyat, balki undan oqilona foydalanish darajasi bilan ham belgilanadi. Institutsional omillar esa tabiiy kapitalni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ifodalaydi. Bu yerda davlat siyosati, huquqiy-me'yoriy baza, ekologik nazorat tizimi, mulkchilik munosabatlari, boshqaruv sifati va institutsional samaradorlik muhim o'rin tutadi. Kuchli institutsional muhit resurslardan foydalanishda tartib-intizomni kuchaytiradi, ekologik xavflarni kamaytiradi va uzoq muddatli strategik rejalashtirish imkonini yaratadi. Aksincha, boshqaruvdagi zaiflik, monitoring tizimining sustligi yoki iqtisodiy rag'batlarning yetarli emasligi tabiiy kapitalning kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Innovatsion-ekologik omillar esa zamonaviy sharoitda tabiiy kapital jamg'arilishining eng istiqbolli determinantlaridan biri hisoblanadi. Resurs tejoychi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, raqamli monitoring, ekologik innovatsiyalar va "yashil iqtisodiyot" tamoyillari tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirib, ularning tiklanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish va tabiat o'rtasidagi ziddiyatni kamaytirib, iqtisodiy o'sish bilan ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi. Tabiiy kapital jamg'arilishi faqat tabiiy resurslar mavjudligiga emas, balki ularni boshqarish sifati va innovatsion rivojlanish darajasiga ham bevosita bog'liq bo'lib, mazkur omillarning uyg'unlashuvi mintaqaning barqaror iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqot jarayonida mintaqada tabiiy kapitalni jamg'arishga ta'sir etuvchi omillarni chuqur va har tomonlama o'rganish maqsadida bir-birini to'ldiruvchi zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar majmuasidan foydalanildi. Jumladan, tizimli yondashuv asosida tabiiy kapital alohida resurslar yig'indisi sifatida emas, balki iqtisodiy, ekologik, institutsional va innovatsion omillar o'zaro uzviy bog'langan murakkab hududiy tizim sifatida talqin qilindi. Omilli tahlil usuli esa tadqiqotning eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bunda tabiiy kapitalga ta'sir etuvchi omillarning bevosita va bilvosita yo'nalishlari alohida baholandi. Bevosita omillar sifatida tabiiy resurslar hajmi, sifati, iqlim sharoiti va ekologik holat ko'rib chiqilgan bo'lsa, bilvosita omillar qatoriga davlat siyosati, institutsional sifat, investitsion muhit, innovatsion texnologiyalar va inson kapitali kiritildi. Mazkur yondashuv orqali har bir omilning tabiiy kapital jamg'arilishidagi ulushi, ta'sir darajasi va ustuvorligi aniqlanib, ularning o'zaro ta'sir mexanizmi ochib berildi. Shu tariqa tadqiqot metodologiyasi mintaqada tabiiy kapitalni jamg'arish jarayonini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash uchun mustahkam ilmiy asos yaratdi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mintaqada tabiiy kapitalni jamg'arish ko'p qirrali omillar tizimi ta'sirida shakllanadigan murakkab iqtisodiy-ekologik jarayon bo'lib, uning samaradorligi

avvalo tabiiy-resurs salohiyati bilan belgilanadi. Yer, suv, iqlim va biologik resurslar mintaqaning tabiiy kapital bazasini tashkil etib, ularning sifati va barqarorligi jamg'arilish darajasining birlamchi asosidir. Sug'oriladigan yerlarning unumdorligi, suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, ekologik muhit holati va bio xilma-xillik tabiiy kapitalning miqdoriy hamda sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, suv tanqisligi yoki suv resurslaridan samarasiz foydalanish tabiiy kapitalning qisqarishiga sabab bo'lsa, yerlarning sho'rlanishi va degradatsiyasi yer kapitali sifatini pasaytiradi. Aksincha, melioratsiya tadbirlari, yerlarning rekultivatsiyasi va suv resurslarini oqilona boshqarish tabiiy kapitalni tiklash va kengaytirish imkonini beradi.

Tabiiy kapital jamg'arilishining iqtisodiy asoslari esa investitsion faollik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, investitsiyalar ushbu jarayonning kengaytiruvchi iqtisodiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, suv tejoychi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik qishloq xo'jaligi, yer va suv infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan investitsiyalar tabiiy kapital hajmi va sifatini oshiradi. Yashil fondlar, ekologik subsidiyalar, davlat infratuzilma dasturlari hamda xususiy sektor investitsiyalari bu borada muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan investitsion siyosatning ekologik yo'naltirilganligi tabiiy kapitalning nafaqat saqlanishi, balki ko'payishiga ham xizmat qiladi.

Biroq tabiiy kapitalning samarali jamg'arilishi faqat resurs va investitsiya bilan emas, balki institutsional muhit sifati bilan ham belgilanadi. Samarali qonunchilik bazasi, ekologik standartlar, mulkchilik huquqining aniqligi, suv va yer resurslarini boshqarish tizimi hamda zamonaviy monitoring mexanizmlarining mavjudligi resurslardan foydalanish natijadorligini oshiradi. Raqamli monitoring tizimlari, ekologik nazorat, hududiy rivojlanish strategiyalari va boshqaruv institutlarining samaradorligi tabiiy kapitalni boshqarishda strategik ahamiyat kasb etadi. Institutsional zaiflik esa resurslardan nooqilona foydalanish, ekologik yo'qotishlar va iqtisodiy samarasizlikka olib keladi.

Zamonaviy sharoitda innovatsion-texnologik taraqqiyot tabiiy kapital jamg'arilishining eng muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Tomchilatib sug'orish, Geografik axborot tizimi (Geographic Information System - GIS) texnologiyalari asosidagi monitoring, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va resurs tejoychi ishlab chiqarish texnologiyalari mavjud tabiiy resurslardan yuqori samaradorlik bilan foydalanish imkonini yaratadi. Innovatsiyalar resurslar sarfini kamaytirib, ekologik zararlarni cheklaydi hamda tabiiy kapitalning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Shu bois, innovatsion rivojlanish tabiiy kapitalni oddiy saqlash emas, balki sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish vositasi sifatida qaraladi.

Ijtimoiy-demografik omillar ham tabiiy kapital jamg'arilishida muhim o'rin tutadi. Aholi sonining ortishi yer, suv va energiya resurslariga bosimni kuchaytiradi, bu esa resurslardan foydalanish intensivligini oshiradi. Bunday sharoitda ekologik madaniyat darajasi, aholining resurslardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalari, bandlik siyosati hamda inson kapitali sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ekologik

ongli jamiyat va malakali inson kapitali mavjud bo'lsa, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi, aks holda esa resurslar degradatsiyasi tezlashadi.

Demak, mintaqada tabiiy kapitalni jamg'arish tabiiy-resurs, investitsion, institutsional, innovatsion va ijtimoiy-demografik omillarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi hamda aynan shu omillar majmui uning barqaror rivojlanish istiqbollarini belgilaydi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Mintaqada tabiiy kapitalni jamg'arishga ta'sir etuvchi omillar tizimi<sup>1</sup>

Omillar guruhi	Asosiy jihati	Ta'sir darajasi
Tabiiy-resurs	Yer, suv, iqlim, bio xilma-xillik	Juda yuqori
Iqtisodiy-investitsion	Investitsiya, subsidiya, yashil fond	Yuqori
Institutsional	Qonunchilik, monitoring, boshqaruv	Juda yuqori
Innovatsion	Texnologiya, raqamlashtirish	Yuqori
Ijtimoiy	Aholi, ekologik madaniyat	O'rta-yuqori

Mintaqada tabiiy kapital jamg'arilishining barqaror va samarali shakllanishiga bir qator tizimli cheklovlar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu cheklovlar tabiiy resurslar salohiyatining pasayishiga, ekologik muvozanatning izdan chiqishiga hamda iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining sekinlashishiga sabab bo'ladi.

Eng dolzarb muammolardan biri suv resurslaridan samarasiz foydalanish bilan bog'liqdir. Ayniqsa, sug'orma dehqonchilik ustuvor bo'lgan hududlarda suvdan foydalanish samaradorligining pastligi tabiiy kapitalning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan suv resurslari zaxirasiga jiddiy bosim o'tkazadi. Eskirgan irrigatsiya tizimlari, ochiq kanallardagi yuqori yo'qotishlar, suv taqsimotidagi nomutanosiblik va suv tejoychi texnologiyalarning yetarli joriy etilmagani natijasida katta hajmdagi suv samarasiz sarflanadi. Bu holat nafaqat suv tanqisligini kuchaytiradi, balki yerlarning meliorativ holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Suv resurslarining ortiqcha yoki noto'g'ri ishlatilishi tuproq sho'rlanishi, sizot suvlarining ko'tarilishi va agroekologik muammolarni kuchaytiradi. Natijada tabiiy kapitalning qayta tiklanish imkoniyatlari cheklanadi.

Tabiiy kapital jamg'arilishiga salbiy ta'sir etuvchi ikkinchi muhim cheklov yer degradatsiyasi va sho'rlanish jarayonidir. Yer resurslari mintaqaning asosiy ishlab chiqarish bazasi bo'lishiga qaramay, ularning sifati ko'plab hududlarda pasayib bormoqda. Tuproq unumdorligining kamayishi, shamol va suv eroziyasi, sho'rlanish, organik moddalarning qisqarishi kabi omillar yer kapitalining iqtisodiy qiymatini susaytiradi. Ayniqsa, sug'oriladigan hududlarda melioratsiya tizimining yetarli darajada ishlamasligi sho'rlanish darajasini oshiradi. Sho'rlangan yerlar qishloq xo'jaligi samaradorligini keskin pasaytirib, ko'proq resurs va xarajat talab qiladi. Bu esa yerning uzoq muddatli ishlab chiqarish salohiyatini zaiflashtiradi. Yer degradatsiyasi faqat iqtisodiy emas, balki ekologik xavf ham tug'diradi, chunki unumdor qatlamning yemirilishi biologik tizimlarning izdan chiqishiga olib keladi.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shu bois yer degradatsiyasi tabiiy kapital jamg'arilishining eng jiddiy to'siqlaridan biri hisoblanadi.

Uchinchi muammo ekologik investitsiyalar yetishmasligi bilan bog'liq. Tabiiy kapitalni tiklash, kengaytirish va samarali boshqarish uchun katta hajmdagi uzoq muddatli investitsiyalar talab etiladi. Biroq ko'plab hududlarda investitsion siyosat ko'proq qisqa muddatli iqtisodiy foydaga yo'naltirilgani sababli ekologik loyihalar yetarli moliyalashtirilmaydi. Suv tejavchi texnologiyalar, melioratsiya, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik monitoring kabi yo'nalishlarga investitsiya kamligi tabiiy kapitalning sifat jihatdan o'sishini sekinlashtiradi. Yashil fondlar, ekologik subsidiyalar va xususiy sektorning yashil iqtisodiyotga jalb qilinishi sust bo'lsa, resurslardan foydalanish an'anaviy va ko'pincha samarasiz shaklda davom etadi. Natijada tabiiy kapitalning jamg'arilishidan ko'ra uning ekspluatatsiyasi kuchayadi.

Monitoring tizimining sustligi ham tabiiy kapitalni boshqarishdagi muhim cheklovlardan biridir. Tabiiy resurslarning holati, ularning sifati, degradatsiya darajasi va foydalanish samaradorligi haqida aniq, tezkor va tizimli ma'lumotlar bo'lmasa, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish qiyinlashadi. Ko'plab hollarda yer, suv va ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha monitoring tizimlari fragmentar yoki eskirgan bo'lib, real vaqt rejimida nazorat imkoniyatlari cheklangan. Raqamli texnologiyalar, GIS, masofaviy monitoring va ekologik audit tizimlarining yetarli rivojlanmaganligi resurslardan foydalanishdagi yo'qotishlarni o'z vaqtida aniqlashga to'sqinlik qiladi. Natijada muammolar chuqurlashgandan keyingina choralar ko'riladi, bu esa iqtisodiy va ekologik xarajatlarni oshiradi. Monitoring sustligi tabiiy kapital boshqaruvida strategik rejalashtirishni ham zaiflashtiradi.

Innovatsion texnologiyalar kamligi ham mintaqada tabiiy kapital jamg'arilishining samaradorligini pasaytiruvchi omillardandir. Zamonaviy sharoitda tabiiy resurslardan samarali foydalanish ko'p jihatdan texnologik darajaga bog'liq. Tomchilatib sug'orish, aqlli qishloq xo'jaligi, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindisiz ishlab chiqarish, raqamli boshqaruv tizimlari kabi innovatsiyalar resurslar sarfini kamaytirib, samaradorlikni oshiradi. Biroq amaliyotda bunday texnologiyalarni joriy etish darajasi past bo'lsa, iqtisodiyot eski, resurs-talab va ekologik xavfli usullarga tayanib qoladi. Bu esa tabiiy kapitalning tezroq eskirishi va degradatsiyasiga olib keladi. Innovatsion texnologiyalar yetishmasligi ko'pincha moliyaviy resurslar tanqisligi, ilmiy salohiyatning sustligi yoki boshqaruvdagi konservativ yondashuv bilan bog'liq bo'ladi.

Institutsional nomukammallik esa yuqoridagi barcha muammolarni kuchaytiruvchi tizimli omil sifatida namoyon bo'ladi. Tabiiy kapitalni boshqarishda qonunchilik bazasining zaifligi, ekologik standartlarning yetarli ishlamasligi, nazorat mexanizmlarining sustligi, javobgarlik va shaffoflikning pastligi resurslardan oqilona foydalanishga to'sqinlik qiladi. Mulkchilik huquqlarining noaniqligi yoki resurslar boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvi samaradorlikni pasaytiradi. Institutsional zaiflik sharoitida hatto investitsiya va texnologiyalar mavjud bo'lsa ham, ularning natijadorligi past bo'lishi mumkin. Chunki boshqaruv sifati tabiiy kapital

jamg'arilishining asosiy koordinatori hisoblanadi. Shu sababli institutsional islohotlar, ekologik boshqaruvni kuchaytirish, hududiy strategiyalar ishlab chiqish va raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Suv resurslaridan samarasiz foydalanish, yer degradatsiyasi, ekologik investitsiyalar yetishmasligi, monitoring sustligi, innovatsion texnologiyalar kamligi va institutsional nomukammallik mintaqada tabiiy kapital jamg'arilishiga salbiy ta'sir qiluvchi o'zaro bog'liq tizimli cheklovlardir. Ushbu muammolarni bartaraf etish kompleks yondashuvni, ya'ni resurs boshqaruvini modernizatsiya qilish, yashil investitsiyalarni kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va institutsional bazani takomillashtirishni talab etadi. Faqat shundagina tabiiy kapitalni saqlash, tiklash va kelajak avlodlar manfaatlarini yo'lida barqaror jamg'arish imkoniyati kengayadi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Mintaqada tabiiy kapitalni jamg'arish murakkab, ko'p omilli va uzoq muddatli strategik jarayon bo'lib, uning samaradorligi nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, balki ushbu resurslardan qanday foydalanilayotgani, qanday boshqarilayotgani va qay darajada tiklanayotgani bilan belgilanadi. Tabiiy kapitalning shakllanishi yer, suv, iqlim, biologik xilma-xillik kabi tabiiy-resurs salohiyatiga tayansa-da, zamonaviy sharoitda uning barqaror o'sishi ko'proq investitsion siyosat, boshqaruv sifati, innovatsion texnologiyalar va ekologik muhitning uyg'unligi bilan chambarchas bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, resurslarning oddiy mavjudligi iqtisodiy rivojlanish uchun yetarli emas. Aksincha, tabiiy kapitaldan samarasiz foydalanish, institutsional zaiflik yoki ekologik boshqaruvning sustligi mavjud resurs bazasining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Shu bois tabiiy kapitalni jamg'arish jarayonida boshqaruv sifati hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Aynan samarali boshqaruv resurslardan foydalanish, ularni tiklash, investitsiyalarni yo'naltirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashning markaziy mexanizmi hisoblanadi.

Bunday sharoitda birinchi navbatda hududiy yashil rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim. Mazkur strategiya mintaqaning tabiiy-resurs salohiyati, ekologik muammolari, iqtisodiy ixtisoslashuvi va demografik bosimini inobatga olgan holda uzoq muddatli rivojlanish modelini shakllantiradi. Hududiy yashil strategiya tabiiy kapitalni iqtisodiy siyosat markaziga qo'yib, resurslardan foydalanish samaradorligi bilan ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanat yaratadi. Bu strategiya orqali suv xavfsizligi, yer unumdorligi, energiya samaradorligi va yashil iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari aniq belgilanadi. Natijada mintaqaning iqtisodiy o'sishi resurslar ekspluatatsiyasi hisobiga emas, balki ularning oqilona boshqaruvi asosida ta'minlanadi.

Ikkinchi muhim yo'nalish yer va suv resurslarini raqamli monitoring qilish tizimini joriy etishdir. Zamonaviy iqtisodiyotda tabiiy kapitalni samarali boshqarish real vaqt rejimidagi aniq ma'lumotlarsiz mumkin emas. Shu sababli GIS, masofaviy zondlash, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalari asosida yer va suv resurslari holatini doimiy nazorat qilish zarur. Raqamli monitoring yer degradatsiyasi, sho'rlanish, suv yo'qotishlari, meliorativ holat va ekologik xavflarni tezkor aniqlash imkonini beradi. Bu esa resurslardan foydalanishdagi yo'qotishlarni kamaytirib,

boshqaruv qarorlarining aniqligini oshiradi. Ayniqsa, suv tanqisligi sharoitida suv resurslarini raqamli boshqarish iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikning muhim omiliga aylanadi.

Uchinchi ustuvor yoʻnalish sifatida yashil investitsiyalar fondini yaratish alohida ahamiyatga ega. Tabiiy kapitalni tiklash va kengaytirish katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Shu bois ekologik yoʻnaltirilgan maxsus hududiy yoki milliy fondlar tashkil etilib, ular orqali suv tejovchi texnologiyalar, melioratsiya, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik qishloq xoʻjaligi va chiqindilarni qayta ishlash loyihalari moliyalashtirilishi lozim. Yashil investitsiyalar fondi davlat, xususiy sektor va xalqaro moliyaviy institutlar resurslarini birlashtiruvchi samarali mexanizm boʻlishi mumkin. Bu esa tabiiy kapitalga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmini oshirib, resurslarning oddiy isteʼmolidan ularning sifat jihatdan oʻsishiga oʻtishni taʼminlaydi.

Toʻrtinchi yoʻnalish ekologik subsidiyalar va yashil kreditlar tizimini joriy etish bilan bogʻliq. Bozor mexanizmlarini ekologik maqsadlar bilan uygʻunlashtirish tabiiy kapital jamgʻarilishining iqtisodiy ragʻbatlantiruvchi asosini yaratadi. Masalan, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilgan fermerlarga subsidiya berish, ekologik toza ishlab chiqarishga imtiyozli kreditlar ajratish yoki qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash resurslardan oqilona foydalanishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, ekologik zarar keltiruvchi faoliyatga nisbatan iqtisodiy cheklovlar qoʻllash orqali resurslarning degradatsiyasini kamaytirish mumkin. Bunday iqtisodiy mexanizmlar tabiiy kapitalni boshqarishda davlat siyosati va bozor instrumentlari oʻrtasidagi samarali uygʻunlikni taʼminlaydi.

Beshinchi ustuvor yoʻnalish innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etishdir. Innovatsiyalar tabiiy kapital jamgʻarilishida resurslar samaradorligini oshiruvchi eng kuchli omillardan biri hisoblanadi. Tomchilatib sugʻorish, aqlli agrotexnologiyalar, GIS monitoring, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindisiz ishlab chiqarish va ekologik muhandislik kabi texnologiyalar resurslardan foydalanish xarajatlarini kamaytiradi, ekologik xavflarni pasaytiradi va tabiiy kapitalning qayta tiklanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Innovatsion texnologiyalar mavjud resurslardan koʻproq iqtisodiy samara olish imkonini yaratib, barqaror rivojlanishning texnologik asosini shakllantiradi. Shu sababli ilmiy tadqiqotlar, innovatsion markazlar va texnologik transfer tizimlarini rivojlantirish tabiiy kapital siyosatining ajralmas qismiga aylanishi zarur.

Oltinchi yoʻnalish ekologik bandlik dasturlarini kuchaytirish bilan bogʻliq boʻlib, bu jarayon tabiiy kapitalni boshqarishda inson omilining rolini oshiradi. Qishloq hududlarida melioratsiya, oʻrmonlashtirish, ekologik xizmatlar, chiqindilarni boshqarish va yashil iqtisodiyotga oid faoliyat turlarida yangi ish oʻrinlari yaratish bir vaqtning oʻzida ham ijtimoiy, ham ekologik samaradorlik beradi. Ekologik bandlik dasturlari aholining daromadlarini oshirish bilan birga, tabiiy kapitalni tiklash va saqlashga xizmat qiladi. Shu tariqa inson kapitali va tabiiy kapital oʻrtasida oʻzaro mustahkamlovchi bogʻliqlik yuzaga keladi.

Umuman olganda, tabiiy kapitalga taʼsir etuvchi omillarni chuqur va tizimli tahlil qilish mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirishning muhim ilmiy asosidir. Bu

yondashuv resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, investitsion siyosatni yashillashtirish va uzoq muddatli iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash imkonini beradi. Tabiiy kapitalni jamg'arish masalasiga strategik yondashuv orqali mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, ekologik xavfsizligi va kelajak avlodlar uchun resurslar barqarorligi ta'minlanadi. Shu bois tabiiy kapitalni boshqarish bugungi kunning ekologik vazifasi bo'lish bilan birga, kelajak taraqqiyotining asosiy iqtisodiy strategiyasiga aylanishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Давыденко Л.Н. Институционализация рынка природных ресурсов. - Минск: ИВЦ Минфина, 2014. - С. 22-23.
2. Неверов А.В., Варапаева О.А., Масилевич Н.А. Экономическая оценка природно-ресурсного потенциала региона: теория и практика применения// Ж. Труды БГТУ. - Минск: №7, 2013. - С. 101-105.
3. Иноземцев В.Л. За пределами экономического общества. - М.: Академия-Наука, 1998. - С 16-17.
4. Гилфасон Т. Мировая экономика природных ресурсов и экономический рост// Экономический журнал ВШЭ. - М.: № 2, 2008. - С. 201-206.
5. Partha Dasgupta. The Economics of Biodiversity: The Dasgupta Review. - London: HM Treasury, 2021. - pp. 523-524.
6. Tim Jackson. Prosperity Without Growth: Foundations for the Economy of Tomorrow. - London: Routledge, 2017. - pp. 210-211.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhih:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, iyun, 6-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**